

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA–QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI
«Landshaft dizayni va interyer» kafedrası

5150900 – «Dizayn» (arxitektura muhitlar) yo'nalishi bo'yicha
bakalavr malakaviy bitiruv ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Mirzo Ulug'bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinikaning arxitektura
dizayn yechimi

Bitiruvchi: Xakimova Gulnoza Zafar qizi

Ma'sul rahbar: Matniyazov Zafar Erkinovich

Rahbar: Zoyirov G'aybulla Abdullayevich

Toshkent – 2017

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI
Arxitektura fakulteti “ Dizayn” (arxitektura muhitlar) yo’nalishi

5-13 Du guruhi

«TASDIQLAYMAN»

«Landshaft dizayni va interyer»
kafedrası mudiri

« » 2017 yil

Malakaviy bitiruv ishi bo’yicha

TOPSHIRIQ

BITIRUVCHI: Xakimovsa Gulnoza Zafar qizi

(F.I.SH.)

1. Malakaviy bitiruv ishi mavzusi: Mirzo Ulug’bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinikaning arxitektura dizayn yechimi

« » _____yildagi № ____ buyruq bilan tasdiqlangan

2. Malakaviy bitiruv ishini bajarish uchun ma'lumotlar:

Mirzo Ulug’bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinika binosining arxitektura va dizayn yechimi yuzasidan topshiriqlar.

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

a) Arxitektura qismi Mirzo Ulug'bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinikaning arxitekturaviy va konstruktiv yechimi

b) Badiiy-dizayn qismi: Mirzo Ulug'bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinikaning badiiy – dizayn yechimi

v) Atrof muhit ekologiyasi qismi : Mirzo Ulug'bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinikaning atrof - muhit va ekologiyaga ta'siri, muzeyning ekologiyasi.

g) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati: I.A.Karimovning farmoyishi.; IIIHK 2 – 08. 02 – 09 “Jamoat binolari va inshootlari”.M.M.Miralimov, S.Sayfuddinov, M.B.Babajanov. Arxitektura. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 316 bet.

4. Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshtab ko'rsatilishi bilan):

Mirzo Ulug'bek tuman 1-sonli stomatologik poliklinikaning tarz yechimi tarx yechimi

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha konsultantlar

№	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchinining familiyasi
1.	Arxitektura				
2.	Badiiy-dizayn				Zoyirov G'.A
3.	Atrof muhit ekologiyasi				

6. Topshiriq berilgan sana: _____

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: _____

Diplom loyihasi rahbari: Zoyirov G' A

Kafedra mudiri: Matniyazov Z. E

MUNDARIJA

1. Kirish.....
2. Arxitektura qismi.....
3. Badiiy-dizayn.....
4. Atrof muhit ekologiyasi.....
5. Xulosa.....
6. Foydalanilgan adabiyotlar.....
7. Ilova.....

Kirish

O'zbekiston Mustaqillikka erishgach, sog'liqni saqlash muassasalariga xamda qurilish madaniyatiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Xalq boyligi sanaladigan yashashning turmush arzini himoyalovchi sog'lomlashtirish maskanlarini qayta tiklash ularni asrab avaylash, o'rganish davlat siyosatining muhim vazifalari sirasiga kiritildi. Chet mamlakatlari bilan o'rnatilgan tashqi aloqalar, katta bosimdagi information oqim boshqa soxalarda bo'lgani kabi arxitektorlar va quruvchilar oldiga xam yangi arxitekturaviy izlanishlar talablarni ko'ndalang qo'yiladi.

Eng asosiysi jamiyatimizda sog'lomlashtirish maskanlarini ko'paytirish, qayta rekonstruksiya qilish jarayoni yuzaga keldi. Arxitektorlar va dizaynerlar tomonidan avvalgidan farqli o'laroq binolarga individual ijodiy yondashish saloxiyati kuchaydi. Bu hozirda qurilayotgan sog'lomlashtirish davolash maskanlari misolida yaqqol namoyon bo'la boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvar kuni sog'liqni saqlash soxasining bir gurux yetakchi mutaxassisleri bilan uchrashdi. "Sog'liqni saqlash soxasini isloh davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir" Sh.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish tibbiyot xodimlari mexnatini rivojlantirish davolashning zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov raxnamoligida amalga oshirilgan xalqimizning munosib xayot sifatini ta'minlash onalik va bolalikni muhofaza qilish har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash, tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar izchil davom ettirilmogda. Mustaqillik yillarida hayotga tatbiq etilgan keng ko'lamli isloxotlar samarasida sog'liqni saqlash tizimi tubdan o'zgardi. Axolining sifatli tibbiy xizmatdan fodalanish O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida"gi qonuni bilan mustaxkamlandi.

Shifokorlik kasbini ulug'lash, ularning mashaqqatli mehnatini munosib rag'batlantirishga aloxida e'tibor qaratilyabti. 1998-yil 10-noyabrdagi qabul "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi Prezident farmoni zamonaviy talablarga javob beradigan va mamlakatimizning barcha xududlarida axoliga malakali xizmat kortaladigan jumladan onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha yaxlit tizimini shakllantirishda muhim omil boladi. Mazkur xujjatga muvofiq mamlakatimizda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha zamonaviy tibbiy xizmat tizimi tashkil qilindi. Ushbu xizmat qishloq vrachlik punktlari va shaxar oilaviy poliklinikalar tarmog'ini qamrab olgan.

2016-yil Sog'lom ona va bola yilida mamlakatimiz tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 80million dollar qiymatidagi kredit va grant mablag'lari yo'naltirildi, farzand ko'rish yoshidagi ayollar va bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib sog'lomlashtirildi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida eshitish bo'yicha nuqsoni bo'lgan 350dan ortiq bola koxlear implantatsiya operztsiyalari amalga oshirildi.

Ammo bugun zamon o'zgarmoqda odamlarning talabi oshib bormoqda. Xalqimizning tibbiy madaniyati yuksalib, eng so'ngi usul va rusumda tibbiy xizmat ko'rsatishini istaydi. Bizga shu ham bo'laveradi, degan tushuncha endi o'z umrini o'tab bo'ldi. Bu barcha soxalar qatori tibbiyot soxasida xam bevosita daxldor,- deydi Sh.Mirziyoyev. Shu bois soxa xodimlari tibbiyotning eng ilgor, zamonaviy yutuqlarini davolash usullarini o'zlashtirmog'I zarur. Erishilgan yutuqlarga maxliyo bo'lib o'tirish taraqqiyoti yo'lidagi eng katta g'ovdir.

2017-yilning Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e'lon qilinganida xam kata ma'no mujassam. Zero inson manfaatlari deganda avvalo insonning salomatligi zamonaviy tibbiyot xizmatidan to'laqonli foydalanishi xam nazarda tutildi.

Sog'liqni saqlash soxasi haqida gapirganda bir xaqiqatni esimizdan chiqarmasligimiz lozim: tibbiyot xodimlari bizning salomatligimiz posbonlaridir. Ularga xalq ishonishi, ular esa xalqni ishontira olishi kerak deb ta'kidladi Sh.Mirziyoyev.

Tadbir mamlakatimiz sog'liqni saqlash soxasini yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish osh muttaxassislarni tarbiyalash jarayoniga ilg'or ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, dunyoning yetakchi tibbiyot markazlari va o'quv muassasalari, taniqli olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikni kengaytirish va boshqa dolzarb masalalar xal qilindi.

Sog'liqni saqlash soxasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-
tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Sog'liqni saqlash soxasida xususiy sektorni rivojlantirishga xar tomonlama ko'maklashishni kuchaytirish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga yuqori texnologiali sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish, xususiy tibbiyot soxasiga xorijdan investitsiyalar va yuqori malakali mutaxassislar jalb etishni kengaytirish, shuningdek, tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar sog'liqni saqlash soxasida xususi sektorni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalish va vaifalari etib belgilansin:
mamlakatimizning barcha hududlarida xususiy tibbiyot muassasalari tarmog'I faoliyatini faollashtirish va kengatirishuchun qulay sharoitlar yaratish, ularning faoliyatini tartibga solish va litsenziyalash tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlas soxasida xususiy sektorning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tizimli xal etish;

Xususiy tibbiyot muassasalarining tashxis qo'yish va davolash bo'yicha zamonaviy yuqori texnologiyali usullarni keng qo'llagan holda, keng

aholi qatlamlari, jumladan, ijtimoiy himoyaga muxtoj fuqarolarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan xizmatlar ko'lami va turlarini kengaytirishni xar tomonlama rag'batlantirish;

Xususiy tibbiyot muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash, ularni zamonaviy tibbiyot uskunalari maxsus inventor va asboblardan jihozlash tibbiyot ixtisosliklari turiga mos keladigan va sanitariya norma haqida qoidalariga talablariga javob beradigan binolar bilan ta'minlash;

Qulay kredit va lizing mexanizmlarini faol javob etish orqali tibbiyot muassasalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lami va hajmini tubdan oshirish, xususiy tibbiyot soxasiga xorijiy investitsiyalar jalb qilishni kengaytirish, etakchi xorijiy klinika hamda tibbiyot markazlari bilan xamkorlikda davolash-tashxis muassasalarini tashkil etish;

Tibbiy sug'urta tizimini keng joriy etgan holda, aholiga davlat tomonidan ko'rsatiladigan kafolatli tibbiy yordam bilan birga sifatli va arzon maslahat-tashxis, davolash, sog'lomlashtirish va boshqa turdagi tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadigan pulli tibbiy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish;

Ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan holda, xususiy tibbiyot soxasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida sifatli va samarali tizimni shakllantirish, xususiy tibbiyot muassasalarini yuqori malakali mutaxassisalar bilan ta'minlash;

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi, iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston xususiy amaliyot vrachlari asosotsatsiyasining xususiy tibbiyot muassasalari uchun ruxsat etilgan va tibbiyot soxasida talab uqori bo'lgan kardiojarrohlik, neyrojrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, endokrinologiya, kardiologiya, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik, urologiya va boshqa tibbiy faoliyot turlarini tubdan

kengaytirish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin, bunda tibbiy faoliyatning aholining hayoti, salomatligi va sanitariya-epidemiologik xolatiga katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan turlaridan tashqari, barcha tibbiyot turlari qamrab olinsin.

3. Tibbiy faoliyatning aholi hayoti, salomatligi va sanitary epidemiologik xolatiga katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan va xususiy tibbiyot muassasalari uchun taqiqlangan ayrim turlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq; Sog'liqni saqlash soxasida xususiy sektorni yanada rivojlantirishning asosiy vazifa va yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan Xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Belgilansinki xususiy tibbiyot muassasalarida tashxis qo'yish va davolash, ayniqsa, jarrohlik amaliyotini o'tkazish bilan bog'liq hollarda yangi yuqori texnologiyali usullarni jori etish faqat tegishli tibbiyot uskunalari, yuqori malakali tibbiyot hodimlari mavjud bo'lganda va sanitariya norma hamda qoidalariga qat'iy rioya etilgandagina ruxsat etiladi.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mexnat vazirligining 2017 yil 1-maydan sog'liqni saqlash soxasida kichik korxonalar xodimlari yillik o'rtacha cheklangan sonining 100 kishigacha bo'lishi to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.
6. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlatirish davlat qo'mitasi foydalanilmayotgan binolar, ob'yekt va xonalarni, ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida tugatilayotgan muassasalarning davlat mulki bo'lgan ob'yektlarini aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'yektlariga "nol" qiymati bo'yicha belgilangan tartibda sotishni ta'minlansin, bunda yangi mulkdorlar investitsiya kiritish va ijtimoiy majburiyatlarni zimmasiga olishga e'tibor qaratilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda biro y muddatda Vazirlar Maxkamasiga "Uzmed-lizing" ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi ustav kapitalini ko'paytirish orqali, jumladan, xorijiy investorlar mablag'larini jalb etish xisobidan tibbiyot muassasalariga zamonaviy yuqori texnologiyali abob-uskunalar xarid qilish xajmini kengaytirish va lizingga berish chora-tadbirlari to'g'risida aniq takliflar kiritilsin.
8. Qishloq joylarda tibbiy xizmatlar ko'rsatish soxasida tashkil etiladigan yangi mikrofirmalar va kichik korxonalar davlat ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 yil muddatga yagona soliq to'lovidan ozod etilsin.
9. Qishloq joylarda tibbiy xizmatlar ko'rsatish soxasida tashkil etiladigan yangi mikrofirmalar va kichik korxonalar davlar ro'yxatiga olingan kundan boshlab 10yil muddatga yagona soliq to'lovidan ozod etilsin

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

Toshkent shaxri 2017-yil 1-aprel

KONSTRUKTIV YECHIMI

Har bir loyihalananayotgan bino konstruktiv yechimga ega bo'lishi kerak. Chunki bu bino va aholi havsizligi uchun eng asosiy vazifalardan biri. Bino mustaxkamligi va chidamliligi konstruktiv yechimga bog'liq.

Bino konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- Funktsional talab – bino qaysi jarayonga mo'ljallangan bo'lsa, shu jarayonning talablariga to'la javob berishi kerak;
- Texnik talablar – mustaxkamlik talablariga to'la javob berishi kerak. bunda loyihaning to'g'ri tanlangani, atmosfera ta'siriga chidamliligi va seysmik talabga to'liq javob berishi kerak;
- Arxitekturaviy-badiiy talab – binoning ichki va tashqi ko'rinishi barcha talabga javob berishi kerak.

Binoning konstruktiv elementlari: poydevor, devor, zinalar, parda devorlar, eshik va derazalar, ustunlar va h.k. Toshkent shaxar 1-stomotologiya poliklinika loyihasi qilinayotgan hudud, eng avvalo, konstruktiv jihatdan o'rganib chiqildi.

- Qurilish hududi – Mirzo Ulug'bek tumani
- Iqlimi – keskin continental
- Hududning zilzila bardoshligi – 8 ball

Bino konstruktiv jihatdan mustahkamlik darajasi bo'yicha karkasli va temir betondan bo'lsa, to'liq ravishda talabga javob berad. Poliklinika binosida hamkarkasli, ham temir beton konstruksiyasidan foydalanildi. Kompleks loyihasini konstruksiyalashda KMK me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda rejalashtirildi. Eng avvalo, asos grundi o'rganib chiqildi, geodezik olimlar tomonidan hudud ko'rib chiqildi. Asos tuprog'i laboratoriyada o'rganiladi. Zamin gruntining yuk ko'taruvchanligi, seysmik jihatdan mustahkamligi hisoblandi. Poydevor yer osti qismiga bog'langan bo'lib, u barcha tushadigan og'irlikni qabul qilib, asosga uzatadi. Asos esa yerga tarqatadi. Poydevor ostida

joylashib, binoning og'irli gini o'ziga qabul qiluvchi tuproqning massasiga asos deb ataladi. Asoslar 2 xil bo'ladi: tabiiy asos va sun'iy asos. Bu loyiha ishi tabiiy asosga egadir. Tabiiy asos deb, qurilgan binoning og'irligini o'zining tabiiy holatida ko'tarib tura olishi mumkin bo'lgan poydevor osti tuprog'iga aytiladi.

Asosiy konstruksiya temir-beton karkas va g'ishtdan. Temir beton konstruksiyasi ichki chizmalarga asosan qilingan. Eng yuqori binosi 2 qavatni tashkil etib, har bir qavat deformatsiya choklari bilan bo'lingan. Binoning yuk ko'taruvchi ustunlari (kollona) monolit temir-betondan loyihalangan. Bino poydevori yuk ko'taruvchi g'ishtli devor tagida B20 (M250) sinfiga oid portlandsementda tayyorlangan o'zaro kesishgan monolit temir-beton lentasimon, ustunlar osti esa ustunsimon qilib loyihalangan. Rigellar (ustunlar) monolit temir-betondan tayyorlanga bo'lib, kesimlari to'g'ri to'rtburchak shaklida 400x500 mm. qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi. Qavatlar aro yopmalar esa monolitdan, bog'lovchi to'sinlar ham qurilish maydonida temir-betonlardan monolit usulda o'rnatiladi. Devorlar binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, ular tashqi muhitdan himoyalashdan tashqari o'ziga tushadigan yukni qabul qilib poydevorga uzatuvchi qurilma hisoblanadi. Tashqi devorga qo'yiladigan talablar: qor va yog'ingarchilik ta'siriga chidamliligi, shamol tezligiga ta'siri, quyosh radiatsiyaga bardoshliligi, temperature ta'siri, seysmik ta'sir va boshqalar. Devorlar asosan materialiga qarab paxsadan, g'ishtdan, yog'ochdan, betondan tayyorlanadi. Devorlar 3 turga bo'linadi: yuk ko'taruvchi, o'zini- o'zi ko'tarib turuvchi va osma devorlar. Mahalla guzari binosida asosan yuk ko'taruvchi devor qo'llanilgan.

Tashqi devor panellarining konstruksiyasi bir va uch qatlamli bo'lishi mumkin. Bir qatlamli panellar, odatda, keramzit beton yoki yengil betonlarning boshqa turlaridan tayyorlanadi. Uch qatlamli panellarning ikkita chetki qatlami temir-betondan ishlanib, o'rta qatlami mineral paxta, k'pik beton singari issiq-sovuqni o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Uch qatlamli panellar ichkariga qaragan temir-beton qatlami yuk ko'taruvchi qatlam hisoblanadi. Uning qalinligi

hisob bilan belgilanib, zilzila kuchi 7 -8 ballgacha mo'ljallangan hududlar uchun 8sm va 9 balli hududlar uchun 10 smdan kam bo'lmasligi lozim.

Demak bizning hudud 8 balli bo'lsa ham, yuk ko'taruvchi qatlam qalinligini 10 sm qilib oldik. Bu bino devorining mustahkamligini oshiradi. Tashqi devorlarni loyihalayotganda iqlimdan kelib chiqib, deformatsiya choklari qo'yiladi. Deformatsiya choklari ham 3 turga bo'linadi: temperature, cho'kish va zilzilaga qarshi choklar. Loyihalangan bino tashqi devorlarida temperatura choki qo'yilgan bo'lib, bu chok qalinligi 25 mm qilib olingan. Chok poydevorgacha keladi va harorat o'zgarganda devordagi turli xil yoriqlar oldini olish uchun qo'llanilgan. Ichki devorlar ham bir qator vazifalarni bajaradi. Xonalarni ajratish bilan birga tovush o'tkazmaslik ham muhim vazifa. Ichki devorlar bir qatlamli qilib ishlangan bo'lib, panel qalinligi 12 sm qilib olingan.

Parda devorlar ichki devor guruhlarini tarkibiga kirib, ko'ndalang va bo'ylama yo'nalishda joylashishi mumkin. Me'yoriy hujjatlarga asosan bir xonadan ikkinchi xona o'rtasidagi parda devorlarning tovush o'tkazmaslik xususiyati 0dB ga teng, xonalar orasida 9dB bo'lishi kerak. (dB – tovush bosimining o'lchov birligi) Insonning tovush bosimi to'lqinlarini qabul qilish qobiliyati 0 bilan 12 dB oralig'ida yotadi.

Parda devorning massasi oshgan sari tovush o'tkazmaslik xususiyati ham ortib boradi. Tovush energiyasi zichliklari har xil bo'lgan ko'p qatlamli parda devorlardan o'tganda o'z kuchini yo'qotadi. Agar qatamlar orasida bo'shliq ko'zda tutilsa, bunday parda devorlar tovush o'tkazmaydi. Binoning turiga qarab parda devorlar o'tga chidamli yoki yonmaydigan bo'lishi kerak.

G'ishtli binolarni sesymik mustahkamligini oshirish uchun bir qancha tadbirlar o'tkaziladi: 1- seysmik kamarlar ishlatiladi, seysmik kamar balandligi minimum 15 sm. Eni asosan devor eniga bog'liq, agar devor 2 yoki undan ortiq g'isht bo'lsa, kamar eni devor endian kichikroq bo'lishi mumkin.

Mavjud bo'lgan binosi loyahasiga biz qo'shimcha bino taklifini kiritdik. Bu bino Qorasuv-3 daxasida joylashgan bo'lib, shimoliy shimoliy Sharqiy tomondan Matqobulov Abdujamil ko'chasi bilan tutashgan G'arbiy Shimoliy tomondan

Temur Malik ko'chasi bilan tutashgan. Janubiy Sharqiy tomondan Gulsara ko'chasi bilan tutashgan. Binoning shimoliy tomonida sadaf restorani hamda turar-joy binolari joylashgan. G'arbiy tomondan poliklinika, Janubiy tomonida ya'ni orqa tomonida akademiya Sharqiy tomondan turar joy binolari bolalar bog'chasi joylashgan. Mavjud bo'lgan binosi 4 qavat va yertoladan iborat bo'lib, balandligi 1-4qavat 3.6 m yer to'la balandligi poldan – 3.5 m. ni tashkil etadi. 1-qavatda regsistratsiya, roentgen, texnik labarotriyalar, majlislar zali, arxiv, bugalter xonasi va yordamchi xonalar mavjud. 2-qavatda terapevt xonasi, sklad, kassa, xirurgiya, davolash xonalari, san uzel xonalari joylashgan. 3-qavatda zararsizlantirish xonasi, konsultatsiya xonalari, xirurgiya opertatsiya xonasi, labaratoriya, hamda institute uchun maxsusu xonalar ajratilgan. Qavatlar aro yopmalar – binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, uni balandligi bo'yicha qavatlarga ajratib turadi. Qavatlar aro yopmalarga qo'yiladigan talablar:

- Mustahkamlik;
- Doimiy va vaqtinchalik yuklar ta'siriga chidamlilik;
- Tovush o'tkazmaslik;
- Suv va bug'lar o'tkazmaslik;
- O'tga chidamlilik va boshqa talablar.

▪ Poydevorlar

Poydevorlar – yer osti konstruksiyalari bo'lib, o'zidan yuqorida turgan konstruksiyalar og'irliklarini qabul qilib, gruntlarga uzatib beruvchi konstruksiyalardir. Poydevorga yuqoridan devor va ustunlarning xususiy og'irligi, pastdan esa zaminning teskari bosimi ta'sir etadi.

Inshoot zamini deganda yuqoridan tushayotgan yukni qabul qiladigan hamda shu yuk ta'sirida kuchlanish va deformatsiya holatida bo'ladigan grunt massasi tushuniladi. Zamin qancha kam va tekis deformatsiyalansa, uning qurilish sifatlari shuncha yuqori bo'ladi; inshootda qo'shimcha kuchlanishlar shuncha kam hosil bo'ladi.

Inshoot va gruntga mos poydevor tanlash loyihalashtirishning muhim masalalaridan biridir. Zamin va poydevorlarning bir necha variantini texnik

iqtisodiy analiz qilish yo`li bilan uning ishchi varianti qabul qilinadi. Poydevorlar yetarli darajada mustahkam, puxta, sovuqqa va yer osti suvlarining agressiv ta`siriga chidamli bo`lishi kerak. Poydevorlarning tarxdagi o`lchamlari shunday olinishi kerakki, yuqoridan tushayotgan hisobiy yuklar ta`sirida poydevor ostki sirtida hosil bo`ladigan o`rtacha bosim, gruntga beriladigan bosimdan ortib ketmasin; poydevorning cho`kishi normada ko`rsatilgan darajada bo`lishi kerak.

Har qanday poydevor loyihasida ikkita xarakterli tekislik bo`ladi, inshoot tayanuvchi ustki sirt (ustki tekislik) hamda grunt bilan tutashib turuvchi ostki sirt (ostki tekislik). Poydevorlar chuqurligi, yuk ta`sirida ishlash xarakteri, konstruktiv shakli, materiali, vazifasi hamda ishlanish uslubiga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi. Chuqurligiga ko`ra sayoz va chuqur poydevorlar bo`ladi. Loyiha shakliga ko`ra alohida, yaxlit lentasimon, massiv, aralash va qoziqli poydevorlar bo`ladi.

Rekonstruksiya qilinayotgan ushbu inshootning poydevori ham yaxlit lentasimon poydevor bo`lib, o`ta mustahkam.

- Monolit temirbeton ramalar

Monolit temirbeton ramalar PM-1; PM-2; PM-3; PM-4; PM-5; PM-6;

Biz rekonstruksiya qilinayotga va taklif kiritayotgan Toshkent 1-stomotologiya poliklinikaning yuk ko`taruvchi negizi monolit temirbetonli bikr rama tugunli fazoviy karkas sxema bo`yicha loyihalangan.

Rama ustunlari monolit temirbetonlardan kesimlari kvadrat shaklida 400x400 mm. qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi va diametri Ø 25A-III, Ø 22A- III, Ø 20A- III, Ø 16A- III, Ø 8A- I (ГОСТ5781-82*) bo`lgan ishchi va konstruktiv o`zaklar bilan o`zaklanadi.

Rama rigellari monolit temirbetonlardan tayyorlangan bo`lib, kesimlari to`g`ri to`rtburchak shaklida 400x520 mm qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi va diametri Ø22A-III, Ø25A- III, bo`lgan ishchi o`zaklari bilan o`zaklanadi, B25 sinfli betondan tayyorlanadi.

- Devorlar.

Devor binoning asosiy konstruktiv elementlardan biri bo'lib, u tashqi muhit ta'siridan ximoyalashdan tashqari ko'p xollardan o'ziga qo'yilgan qavatlararo yopma va tom og'irligini ko'tarish vazifasini ham bajaradi. Binoning bu element turli tuman tashqi kuchlar va tashqi muhit ta'siri ostida bo'ladi. Devorlar o'z xususiy og'irligini, tom va qavatlararo yopmalardan tushadigan doimiy va vaqtinchalik yuklarni, shamol kuchi ta'sirini, zaminning notekis cho'kishidan xosil bo'lgan deformatsiyalarni, zilzila kuchlari va boshqalarni qabul qiladi.

Devorlar tashqi tomondan quyosh radiatsiyasi, yog'in sochin, o'zgaruvchan xarorat va xavo namligi, shovqin kabi ta'sirlar ostida bo'ladi. Shuning uchun ham bino loyixasini yaratishda devorlarning joyi, ularning konstruktiv sxemasi va turini tanlashga katta e'tibor beriladi. Bino devorlari vazifasiga ko'ra quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak, mustaxkam, turg'un, fazoviy, birk bo'lishi, bino sinfiga to'g'ri keluvchi olovbardoshlik darajasiga mos, xona ichida ma'lum xarorat va namlik rejimini ta'minlash, tovushdan yetarli darajada izolatsiya qilishi, o'rnatilishda texnologik va industrialikka ega, tejamli arzon bo'lishi. Uni qurishda mexnat kam sarflanadigan bo'lishi, arxitektura talablariga javob berishi lozim. Tashqi devorlarda odatda bino ichini tabiiy yorug'lik bilan ta'minlash uchun deraza o'rni, xonaga kirish va balkon hamda ayvonlarga chiqish uchun eshik o'rni qoldiriladi. Deraza va eshik o'rnatilgan devorlar ham o'z navbatida yuqoridagi talablarga javob berishi kerak.

Tashqi devorlar va ular bilan birgalikdagi binoning boshqa elementlarini bino qurilayotgan joyining tabiiy iqlim va geologic shart-sharoitlariga xamda xajmiy-tarxiy rejalashtirish yechimlarini xisobga olgan holda vertikal deformatsiya choklari orqali qismlarga ajratiladi. Deformatsiya hoklari: xarorat (choklari), cho'kish hamda zilzilaga qarshi choklari kabi turlarga bo'linadi.

- Tom va tom qoplamalari

Binoni ustki qismini tashqi muhitdan tomlar va yopma himoya qiladi. Tomlar shakli, nishablarining qanday qiyalikda bo'lishi, binoning tarxdagi o'lchamlariga va ko'rinishiga, tom yopmasining materialiga, suvni tushirish usuliga, iqlim sharoitiga, texnik-iqtisodiy sharoitlariga hamda bino arxitekturasiga oid mulohazalarga bog'liqdir. Tom va tom yopmalarning shakli bir nishabli va ikki nishabli bo'ladi. Shuningdek to'rt nishabli, gumbazsimon qubba, konussimon va boshqa xil tomlar ham bo'ladi. Nishablarning bir-birini qiya holda kesib o'tishidan turtib chiqqan burchak qovurg'a (rebro) yoki ichkariga kirgan burchak yondova hosil qiladi. Bir tomning hamma nishablari, odatda, bir xil qiyalikda bo'lishi kerak. Tom va tom yopmalarning shakli imkoniyat darajasida oddiy bo'lishi va imkon boricha yondovasiz bo'lishi kerak, chunki yondova tomning mustahkam qismi hisoblanadi va doimiy tekshirib, qarab turishni talab qiladi.

Tom va yopmalar tomlar nishablarining qiyaligi nishab qiyaligi bilan gorizont orasidagi uning gorizont holatiga nisbati bilan, ya'ni protsentlarda (%) yoki kasrlarda ifodalangan qiyalik burchagining tangensi bilan o'lchanadi.

Tom va yopma tomlar qiyaligiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- qiyaligi 5 % va undan ortiq bo'lgan nishab tomlar;
- qiyaligi 0 dan 5 % gacha bo'lgan tekis tomlar.

Chordoqning balandligi uning ichida bemalol yurish imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'rtacha 1,6 m dan kam bo'lishi mumkin emas. Hozirgi kunga kelib tom yopmalarining ham turli ekologik toza va chidamli turlari ishlab chiqarilmoqda.

Temir cherepitsa — varoq to'shama tunika ko'rinishdagi yupqa po'lat, aluminiy yoki misdan tayyorlangan, polimer bo'yoq qatlami bilan qoplangan, sovuq bosim yordamida maxsus ishlov berilgan (profillangan) tombop ashyo hisoblanadi. Po'latdan tayyorlangan cherepitsa qiyalik burchagi 14° ga teng bo'lgan sharoitda tom yopish uchun qo'llaniladi. Tom yopishning ushbu turidan -50°C dan $Q50^\circ\text{C}$ gacha bo'lgan havo haroratida atrof muhitning zararsiz yoki kam zararli sharoitlarda foydalanish tavsiya etiladi. Po'lat cherepitsaning umumiy og'irligi 1

mg hisobida taxminan 5 kg ni tashkil etadi (taqqoslash uchun: sopol - 38-40 kg, shifer - 10-15 kg). Tarkibi kam uglerodli po'latdan tayyorlangan tunika varoq. Uning yuzasi elektroliz yo'li bilan yoki eritmaga solish usuli bilan ikkala tomondan simli himoyalovchi qatlam bilan qoplanadi, keyingi qatlam xomaki (gruntovka) himoyalovchi tabiiy qoplama bo'lib, uning ustidan rangli polimer surtiladi. Polimer qatlam deformatsiya bo'lganda egiluvchan va bardoshli bo'lishi lozim. Natijada po'lat cherepitsa zanglashga chidamli va rangning tiniqligi ta'minlanadi. Qoplamalar o'z xususiyatlari, qalinligi va narxlar bo'yicha farqlanadi. Eng keng tarqalgan qoplamalar quyidagilar qisoblanadi: poliester (RE qalinligi 25-30 mikron), poliuretan (Ri qalinligi 50 mikron) Ammo, mustahkam o'rnatilmagan po'lat cherepitsa yomg'ir va shamol paytida shovqin soladi. Buning uchun tom yopishda maxsus tovushni o'tkazmaydigan qoplama (odatda tovush o'tkazmaydigan qatlamni issiqni o'tkazmaydigan qatlam bilan birlashtirgan holdalar ishlatiladi.

ONDULIN - yapaloq shiferga nisbatan uzoq muddatda foydalanishga mo'ljallangan, 15 yil kafolati va 50 yil foydalanish muddatiga ega tombop ashyo. To'lqinsimon ONDULIN tarkibida sog'liq uchun zararli bo'lgan moddalar yo'q va u faqat ekologik toza ashyolardan tayyorlanadi. ONDULIN tombop ashyo sifatida turli iqlim sharoitlarida nihoyatda chidamli hisoblanadi. ONDULIN tarkibida tosh paxta, mineral bog'lovchilar yo'q, u oson kesiladi va mix qoqanda yorilmaydi dars ketmaydi. U chiqariladi turli ranglarda ishlab ko'rinish jihatidan chiroyli hamda jozibali va zararli muhit ta'siriga chidamli ashyodir. Ondulin chirimaydi, harorat - 35°C dan Q70 °C gacha bo'lganda ham xossalari o'zgarmaydi. U kislotalar, ishqorlar va sanoat gazlarga nisbatan kimyoviy jihatdan bardoshli. Ondulin yengil, oson egiluvchan ashyo bo'lib, eski tombop materialning ustiga ham yopilishi mumkin. Mustahkamligi-60 kg sG`kv.m.

- Deraza va ularning konstruktiv yechimi

Xona ichiga tabiiy yorug'lik devordagi vertikal – tomlardagi gorizantal joylashgan derazalar orqali tushadi. Derazalar qurilish normalariga asosan ishlab

chiqiladi. Deraza materiali yog'och, temir – beton, plastik va alyumindan bo'lishi mumkin. Derazalar ochilish usuliga qarab ham bir necha turlarga bo'linadi:

- 1 tabaqali
- 2 tabaqali
- 3 tabaqali
- Surilib ochiladigan
- Tabaqalar yuqori va pastga ilingan
- Jalyuzali

Xozirgi zamonaviy arxitekturada derazalardan o'zgacha usulda qo'llanilmoqda. Materiali plastikdan bo'lib, o'zgacha shakl berilgan.

Derazalar ustiga milliy naqshdan bezak berilgan. Deraza oynalari qanchalik katta bo'lsa, xonaga shuncha ko'p yorug'lik tushadi. Tabiiy yorug'lik inson salomatligi uchun foydalidir. Yorug'lik yetarli darajada bo'lishi uchun tom qismida ham kichik hajmdagi derazachalardan foydalanilgan. Loyihamizning har bir xonasida tabiiy yorug'lik kerak bo'lgani sababli hech bo'lmaganda kichik kichik hajmli derazalar joylashtirdik.

▪ Eshik

Eshiklar bino ichiga kirish va birdan biriga o'tadigan xonalarni o'zaro izolyatsiya qilish uchun xizmat qiladi. Ularning soni va o'kchamlari xonaga to'g'ri kelgan kishilar soni, binoning ko'rinisi va boshqalar zamini bo'yicha aniqlanadi. Eshiklar devorlargamaxkamlanadigan rom ko'rinishidagi kesaki va ularga ilingan tavaqadan iborat bo'ladi.

Tavaqa soniga qarab eshiklar bir, bir yarim va ikki tavaqali bo'lishi mumkin. Binoda joylashishiga ko'ra eshiklar ichki, tashgqi va shkaf eshiklariga bo'linadi. Odatda bir tavaqali eshiklarning kengligi 600, 700, 800, 900 va 1100 mm, ikki tavaqaliniki esa 1200, 1400 va 1800 mm ga teng qilib olinadi. Turar-joy binolari eshiklarining balandligi 2000 va 2300 mmga teng bo'ladi. Evakuatsiya uchun mo'ljallangan maxsus xonalar va xizmat eshiklarining balandligi 1200 va 1800mm bo'lishi mumkin.

▪ Pol va ularning konstruktiv yechimi

Bino loyihalanganayotganda pol va ularning konstruktiv yechimi ham ko'rib chiqilgan. Pollar to'g'ridan - to'g'ri oraliq yopmalar ustidan, podvalsiz binolarimizda esa to'g'ridan- to'g'ri grunt ustidan pollar tayyorlanadi. Pollarning yuzasi qoplama yoki haqiqiy pol deyiladi. Pollarning turlari ham ko'p: yog'och taxtali pollar, lenolium pollar, keramik pollar, mozaykali pollar va boshqalar.

Agar bino podvalsiz bo'lsa, u holda o'lchami 25x25 sm bo'lgan tumbalar ustiga lagalar qo'yib qoqib chiqiladi. Taxta pollar shpuntlarining shakli to'rtburchak, doira yoki trapetsiya shaklida bo'lishi mumkin.

▪ Zinalar

Zinalar qavatlar orasidagi aloqani amalga oshirishga hizmat qiluvchi asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalardandir. Bundan tashqari zinalar tabiiy ofat, yong'in va avariya vaqtida kishilarni binodan tez evakuatsiya qilish hizmatini bajarishi kerak. Zinalar vazifasiga qarab quyidagi hillarga bo'linadi:

- Asosiy va yordamchi zinalar, qavatlar orasida kishilarning kundalik ommaviy qatnovi va binodan tashqariga chiqish uchun hizmat qiladigan zinalar.
- Yordamchi zinalar – o't o'chirishda, avariya vaqtida foydalaniladigan, chordoqqa chiqish va yerto'laga tushish uchun hizmat qiladigan zinalar kiradi.

Zinalar qiya joylashgan marshlar, gorizantal supachalar va harakat xavfsizligini ta'minlovchi tutqichlardan iboratdir. Zina devorlari yetarli darajada o'tga chidamli bo'lgan maxsus xonalarda zina kataklarida quriladi. Binodagi zinalarning soni, joylashishi, o'lchamlari, qabul qilingan binoning arxitektura – tarxiy yechimiga, qavatlar soniga odamlar harakati oqimining shiddatiga (intensivligiga) bevosita bog'liq.

Zinalar quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak: mustahkamlik, harakat xavfsizligi, yong'indan xavfsizlik, harakat vaqtida toliqmaslik, gigiyena, iqtisodiy va hokazo. Qavatlar aro zinalardagi marshlarning soniga ko'ra 1,2,3,4

marshli zinalar bo‘ladi. Zinalar 15x30 nisbatda, ya‘ni balandligi 15sm kengligi 30sm bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Zinalar materialiga ko‘ra: yog‘och, po‘lat, temirbeton; yig‘malik darajasiga ko‘ra: yaxli, yig‘ma, yig‘ma blokli bo‘ladi. Asosiy zinalarning bir marshdagi zinapoyalar soni 18dan ortiq va 3tadan kam bo‘lmasligi kerak. Konstruktiv yechimga ko‘ra kapital qurilishda zinalar 2 ta asosiy yechim asosida industrial usulda tayyorlanmoqda:

- Yirik bir qavat uchun har birining og‘irligi 101,5tonna bo‘lgan 5ta elementdan iborat, ya‘ni 3ta supacha va 2 ta marsh.

- Og‘irligi 3 tonna atrofidagi 2 ta elementdan iborat. Zina marshi 2ta yarim supa bilan birga quyma ravishda tayyorlangan, ya‘ni yiriklashtirilgan elementlardan tashkil topgan zinalar marshlarining va supachalarining shakllari turlicha bo‘lishi mumkin.

▪ LIFTLAR

Liftlar besh va undan yuqori qavatli turar-joy binolarida qo‘llaniladi. Ular uch xil bo‘ladi: odamlarni ko‘tarib tushirishga mo‘ljallangan, yuklarni ko‘tarib tushirish uchun (sanoat binolarida) hamda xizmat (meditsina) liftlari. Yuk ko‘tarishga nisbatan turar-joy binolarida 350 kg (5 kishi) va 500 kg (7 kishilik) yuk ko‘taruvchi liftlar ishlatiladi. Liftlarning asosiy elementi mashina bo‘linmasiga o‘rnatilgan ko‘taruvchi lebedkaga po‘lat arqonlar yordamida osilgan kabinadan iborat bo‘ladi. Lift shaxtasi butun balandligi bo‘yicha to‘rt tomonlama o‘raladi va uni ostkiqismida balandligi 1300 mm ga teng chuqurcha bo‘lib, u joyga amortizator va tortib turuvchi uskuna joylashtiriladi. Mashina bo‘limi shaxtaning tepa qismida yoki ostki qismida joylashdgan bo‘lishi mumkin. Hozirgi paytda turar-joy binolarida o‘rnatiladigan lift shaxtalari qalinligi 120 mm bo‘lgan temirbeton yig‘ma quti ko‘rinishidagi elementlardan tuzib chiqiladi. Lift shaxtalarini odatda zinapoya yaqiniga o‘rnatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MODERN

XIX asr oxiri XX asr boshlarida butunlay yangi zamonaviy uslub –modern paydo bo‘ldi. Uning asosiy belgisi –bezak; asosiy mazmuni –o‘sayotgan o‘simlik; asosiy prinsipi –qo‘l bilan ishlangan naqsh tabiiy shaklga o‘xshatish va aksincha. Konstruktiv va dekorativ elementlar organik ravishda uyg‘unlashib ketgan. Uylarning fasadlari simmetrik emas. Intererlarning ifodali xususiyatlari: karnizlarning (bukilgan) egilgan ko‘rinishi, eshik va oynalar oraliqlarining aylana shakli, yog‘ochdan qilingan boy naqsh bezaklari, rangli oyna, rangli metal. Yangi konstruktiv-texnik vositalar va loyiha yakka, ko‘rinishi alohida binolarni ko‘rish uchun ishlatiladi.

“Modern” uslubi (fransuzcha moderne –yangi, zamonaviy).

Modern –XIX-XX asrlardagi Amerika va Evropa san‘atidagi yo‘nalish (us;ub). Modern –turli davrlar san‘at ko‘rinishini o‘zlashtirdi va qayta mazmun kiritdi, o‘zining badiiy uslubini ishlab chiqdi, bu uslub assimetriyaning tamoyillariga, naqsh va bezakka asoslangan.

Modernning uslublashtirish ob‘yektini tabiiy shakllar hamdir. Bu faqat asarlardagi o‘simliklar naqshlariga bo‘lgan qiziqish bilan emas, balki ularning plastik va kompozitsion tuzilishi bilan –egri chiziqlarning ko‘pligi o‘simlik shaklidagi tekis bo‘lmagan konturlar bilan tushuntiriladi.

Modern bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jihat – bu simbolizm, u modern uchun falsafiy-estetik asos bo‘ladi, o‘zining g‘oyalarini plastik tarzda amalga oshiradi.

XIX asr oxiri –XX asr boshlaridagi Yevropa va Amerika san‘atidagi uslub “modern” turli mamlakatlarda turlicha nom olgan: masalan “Art Nuvo” (Art Novvezu) –Fransiyada va Belgiyada, Jugendstil (Jugendstil) Germaniyada, Setsession (Sezession) Avstriyada, Liberti (Liberty) Italiyada va boshq. Modern jadal rivojlanayotgan industrial jamiyatda vujudga keldi. Modern san‘atida, bir tomondan badiiylik, individuallik g‘oyalari, ikkinchi tomondan san‘atga utopik ravishda jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi deb qaraldi (masalan:

Bel'giyalik H.K. Van de Velde ishlarida sotsialistik utopist U. Morris g'oyalariga asoslanadi).

Insonni o'rab turgan muhit – turar-joy binolari me'morchiligidan to liboslar detallarigacha uslubni shakllantiruvchi prinsiplari borligini tasdiqladi. Modern vakillari esa, me'morchilikka san'at sintezining noma'lum tarafining asosi deb qaradilar. Modern shaxsiy uylar-qasrlar, tadbirkorlik binolari, sanoat va savdo inshootlari, vokzallar, foyda keltiruvchi binolar me'morchiligida yaqqol ko'rindi. Modern me'morchilikda boshqa uslublar tizimidan, order yoki eklektik tizimidan olingan inter'er va fasad qismi bezaklarini inkor qildi. Modern uslubini konstruktiv va dekorativ elementlarga ajratib bo'lmaydi; modernning bezak uslubi - me'moriy shaklni estetik tushunib olishdadir.

Bino tuzilishida ichki maydonning qurilishi muhim ahamiyatga ega, bu tashqi shaklni ritmik va plastik tasvirlashda ifodalandi. Modern binolarining fasadlari dinamik va qo'nimsiz shaklda, u haykaltaroshlikni yoki organik tabiiy hodisani eslatadi, gohida bino hajmi elementlarini yaqqol geometrik ko'rinishini ta'kidlab turadi. (Ispaniyada A.Gaudi, Bel'giyada Viktor Orta va Van de Velde, Rossiyada F.O.Shextel' qurilishi, Xofman I., Y.M. Ol'brix Avstriyada, I.R.Makintosh Shotlandiyada).

Modernning ayrim me'morlari funksionalizmni qo'llab-quvvatladilar, binoning karkas tuzilishini aniqlab, hajm va og'irlikning o'zgarishiga e'tibor berdilar (O.Vagner va Xafman qurilishlari Avstraliyada, P.Berens Germaniyada, O.Perre Fransiyada).

Milliy va tarixiy yo'nalishning ayrim detallarini olgan XIX asr elektizmidan farqli ravishda modern uslublashtirish orqali turli davr va uslublarning san'at qirralarini organik o'zlashtirdi, bu oldingi me'morchilik namunalarida, bir butunlik g'oyasini tabiatdan olishda, badiiy obrazning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi tamoyillarida aks etdi. Muhim ifoda vositasi bo'lgan bu xususiyatlar egri chiziqlar bezagidir. U o'ziga asarning kompozitsion tuzilishini bo'ysundiradi,

shuningdek ekspressiv oqim bilan to'ldirilgan. Naqsh bilan boshlanishi modern san'atining barcha turlarini birlashtiradi. Inter'yerlarda nafis chiziqlar o'rami, devor bo'ylab cho'zilgan harakatdagi o'simlik bezaklari, polda, shipda ham birlashish joylarida to'planadi, me'moriy (bo'shliqni) maydonni biriktirib, uni faollashtiradi. Naqsh chiziqlari ma'naviy-ruhiy va ramziy ma'noga ega, tasvirni begona element bilan, jonlikni jonsiz bilan uyg'unlashtiradi. Venalik modern ustalari –Xofman, Ol'brix, Makintosh rahbarligidagi “To'rtta Shotland guruhi ishlarida aylana va kvadrat (mazmuni) motiviga geometrik naqsh juz'iy o'zgarish beradi. Modern uchun san'atning dastgohli va amaliy bezak shakllariga chuqur kirib borish o'ziga xos. Rangtasvirda panno muhim ahamiyat kasb etadi, haykaltaroshlikda esa –relyef. Me'mor, rassom va haykaltaroshning asosiy maqsadi sintetik, butun san'at asari yaratishdir. Bu an'ana universal-rassomning tug'ilishida o'z aksini topadi, u ijodiy faoliyatning turli xil ko'rinishida ifodalanadi. (mas., Van de Velde).

Modern rangtasviri uchun naqshli gilamli ko'rinishning bezakli shartligi bilan ayrim detallar, figuralar, qiyofani (natural) tabiiy sezishning moslashib ketishi xos, bunda katta nafis monoxromli rangli tekislik qo'llaniladi. P.Gogen, Fransiyadagi “Nabi” rassomlar guruhi, Avstraliyadagi G.Klimt, Belgiyada Knopf, Novergiyada E.Munk, oz bo'lsa ham M.A.Vrubel', Rossiyadagi “Mir iskusstva” vakillari asarlarida modern uslubi simvolizm uchun xos bo'lgan mavzularni gavdalantirish uchun ishlatiladi. Modern haykaltaroshligi (bel'giyalik J.Minne, Nemis G.Obrits) shakl va ko'rinishning qo'nimsizligi va dinamikasi bilan farq qiladi.

Modern ayniqsa amaliy bezak san'atida keng yoyildi, huddi me'morchilikdagidek organik shakllarga ayrim detallarning, predmetlarning o'xshashligi. (Gaudining keramik va temir buyumlari; E.Gimarning metroga kirishdagi metall peshtoqlari; E.Gallening shisha buyumlari; R.Lalik (Fransiya) taqinchoqlari, AQSHda L.K.Tiffanning shisha idishlari, Van de Velde mebeli)

Konstruktivlik va chiziqlar aniqligi, shakllarning ixchamligi Makintosh, Xofman, I.A.Fominning mebellarida ko'rindi. Amaliy san'atning rivojlanishi ilk davrda badiiy hunarmandchilik ustaxonalarini qayta tiklashga urinish bilan bog'liq, u kapitalistik industriyaga utopik qarama-qarshi qo'yilgan. (Morris ustaxonasi 1861 y. va "San'at va hunarmandchilik ko'rgazma jamiyati –1888 y., "Birlashgan badiiy hunarmandchilik ustaxonalari" BuyuBritaniyada 1897 va "Nemis badiiy-hunarmandchilik ustaxonalari" "Verkbund "1899 y. Germaniyada, Rossiyada Abramtsevodagi ustaxonalari 1882 y. Rossiyada Toloshkinda 1900 y.).

Modernda grafika yaxshi rivojlandi, uning mashhur vakillari ingliz O.Byordli, Nemislar T.T. Xeyne, G.Fogeller, Shvetsariyalik F.Vallotton , Gollandiyalik Ya.Torop, Norvegiyalik Munk; Rossiyalik A.N.Benua, K.A.Somov; afisha ustalari A.de Tuluz –Lotrek, E. Grasse, chex A.Muxa, Avstraliyalik K.Mozer.

Modern grafikasi kitob ishi gullashi bilan va badiiy jurnallar tarqatilishi bilan uzviy bog'liq, ular modern g'oyalarini targ'ibot qilishgan. ("Revua blanche", 1891 y.da asos solingan Parij; "The studio", 1893 y. asos solingan –London; "The yellow Book" 1894 y. asos solingan –London; "Jugend" 1896 y.da asos solingan –Myunxen; "Ver sacrum" 1898 y.da asos solingan –Vena; "Mir iskusstva" Rossiya).

Modern yo'nalishini so'zning umumiy ma'nosi "zamonaviy" dan farq qilish kerak, xuddi shunday modernizmdan ham. Modern uslubining asosiy belgisi –bezak, asosiy mazmuni –chirmashib o'sgan o'simlik, asosiy tamoyili –tabiiy shaklga qo'l bilan o'xshatish. Bularning hammasi me'morchilikda, bino detallarida , naqshda o'z ifodasini topdi va rivojlandi. Naqshinkor chiziqlar ramziy va ruhiy-ma'naviy mazmunga ega edi. San'at sintezi g'oyasi modern uslubiga singib ketadi. Sintez asosi me'morchilik bo'lib, u san'atning boshqa turlarini –rangtasvirdan kiyim modellarigacha birlashtirdi.

Modern me'morchiligida konstruktiv va bezak elementlari organik ravishda uyg'unlashib ketgan. San'at sinteziga bir butun misol bu qasrlar, pavil'onlar,

modern davri jamoat binolari. Ular “ichkaridan tashqari”ga qilib qurilgandek, ya’ni ichki (bo’shliq) maydon binoning tashqi ko’rinishini ifodalaydi. Bunday imoratlarning fasad (old ko’rinish)lari shakllanayotgan organizmga o’xshab, bir vaqtning o’zida tabiiy shaklni va haykaltaroshning erkin tarzda shakllarni yaratish natijasini eslatadi. Ayniqsa, bu imoratlarning inter’yerlari karnizlar egiluvchanligi, aylana shaklidagi oyna, eshiklar oraliqlari, yog’och naqshli bezaklar, rangli shisha, rangli metall bilan taassurotli.

Isپaniylik me’mor A.Gaudi ijodi ajoyib me’moriy ansamblning yagona ramziy obrazini yaratishda yorqin va takrorlanmas misol bo’la oladi, u huddi osmonga qadar o’sa borib reallik va fantaziya bitta bilib ifodalangan.

Modernning badiiy tili simbolizmning g’oya, obrazlarini tasvirleydi, u murakkab o’simlik bezagi bilan moslashadi, egiluvchan oqayotgan chiziq va tekislikdagi rangli dog’lar bilan uyg’unlashadi. Xuddi shu ruhda amaliy san’at asarlari yaratilgan: panno, mozaika, vitraj, keramika, bezak rel’efi, mayolika haykaltaroshligi, chinni va shisha(vaza) guldonlar va boshq. Kartina va grafik qog’ozlarda ham modern uslubidagi dekorativ stilizatsiya xususiyatlari aks etdi.

Modern rangtasviri bilan P.Gogen, M.Deni, P.Bonnar –Fransiyada, G.Klilet –Avstraliyada, E.Munk –Norvegiyada, M.Vrubel’, V.Vasnetsov, A.Benua, L.Baket, K.Somov –Rossiyada, bog’liq.

Modernda kitob va jurnal grafikasi keng yoyildi(O.Berddley Angliyada). Afisha va plakat keng yoyildi(Fransiyada A.Tuluz –Lotrek, Chexiyada A.Muxa).

Tasviriy san’atda modern uslubining janrlar ajralmasligi rangtasvirning grafika, haykaltaroshlikning nisbiy nomustaqilligiga olib keldi. Me’mor, rassom, haykaltaroshning maqsadi bir butun, sintetik san’at asari yaratish edi.

Modern uslubidagi me'morchilik

Modern me'morchiligi tabiiy chiziqlar va yangi texnologiyalardan (metal, shisha) foydalanish bilan to'g'ri chiziqni inkor etadi.

Boshqa uslublar kabi, modern me'morchiligini bir vaqtning o'zida nafis, ko'rkam imoratlar yaratishga intilish farqlab turadi. Asosiy e'tibor faqat binoning tashqi ko'rinishiga emas, balki inter'yerga qaratiladi. Barcha konstruktiv elementlarga badiiy jihatdan ishlov beriladi, zinapoyalar, eshiklar, (stolbalar), ustunlar, balkonlar.

Modern yo'nalishida ishlagan me'morlardan biri Bel'giyalik Viktor Orta (1861-1947). U o'z loyihalarida yangi materiallarni, ya'ni metall va oynani birinchi marta qo'lladi. Temirdan qilingan olib o'tuvchi konstruktsiyalarga u o'zgacha shakl berdi, bu shakllar (hayoliy) fantastik o'simlikni eslatadi. Zinapoya panjarasi, shipdan osilib turgan yoritgichlar hatto eshik (ruchka) ushlagichlari – hammasi yagona uslubda loyihalandi. Fransiyada modern g'oyasini Ektor Gimar rivojlantirdi, u shuningdek Parij metrosiga kirish pavil'onlarini qurdi.

Antonio Gaudi esa keyinchalik me'morchilik xaqidagi klassik tushunchadan yiroqlashdi. U qurgan imoratlar atrofdagi manzaraga shunday mos tushganki, bu inson qo'li bilan emas, tabiat tomonidan yaratilgan degan fikr tug'iladi.

“Setsession” deb atalgan va birinchi Belgiyada paydo bo'lgan bu uslub Germaniyada “Yugendstil” degan nomni oldi. Avstriyada “setsession”, Fransiyada “ar-nuvo” deb ataldi. “Setsession” atamasi XIX asr oxirida Yevropada vujudga kelgan “rassomlar va me'morlar ittifoqi” ya'ni “setsessiy” degan so'zdan kelib chiqqan, tarjimai – ixtilof ya'ni ajralib ketish. Birinchi setsessiya Myunxenda paydo bo'ldi.

Modern me'morchiligi turlicha. U o'zidan oldingi yo'nalishlarning elementlarini olgan. Bu uslubda qurilgan imoratlar Mavritaniya saroylarini, qasrlarini, zavod korpuslarini eslatadi. Ammo undan oldingi eklektizm, renessans va barokkodan shakli to'g'ri nusxalari olishni inkor etishi bilan farq qiladi.

XIX asr oxirida Chikagoda Luis Salliven, Amsterdamda Genrix Petrus Berlage, Belgiyada Anri van de Vel'de va Venada Otto Vagner o'xshatishlikka qarshi chiqib, bir vaqtning o'zida o'z talablarini qo'ydilar, ularning qarshiligi e'tiborsiz qolmadi.

Boshlang'ich davrda yo'nalish rivojlana bordi va vaqt o'tishi bilan undan bir nechta oqim ajralib chiqdi.

1. Neoromantizm –bunda gotika, renessans va roman uslubi elementlaridan foydalanilgan –S.Peterburgdagi fransuz elchixonasining katolik ibodatxonasi (L.N.Benua va M.M.Peretyatkovich), bino roman stildagi elementlar bilan bezatilgan. Ichkarisi: neoromantizm: gotizm, vizantizm va yana bir qator an'analar.
2. Neoklassitsizm, misol –Moskvadagi A.S.Pushkin muzeyi, Parijdagi Yelisey maydonidagi teatr (O.Perre), Londondagi “Pikadilli” mehmonxonasi (N.Shou), Peterburgdagi Bolshaya Morskaya ko'chasidagi Azov-Don banki.
3. Ratsionalizm, bunda oddiy shakllar ustun turadi. Rossiyada “Ratsionalizm” atamasini odatda modernga emas, keyingi avangardga ishlatishadi.
4. Irratsionalizm, misol –Parijdagi “Samariten” do'koni (F.Jurden).
5. “G'isht uslubi” –me'morlar suvoqni inkor etishgan va imoratlarning barcha bezak, detallari g'ishtdan qilingan. (uning asoschisi Rossiyada – V.A.Shtyoter).
6. Ayrim yirik shaharlarda va hududlarda modern o'ziga xos xususiyatlariga ega. Shu asnoda quyidagi atamalar paydo bo'ldi: Vena, Berlin, Parij modern, Rossiyada –Moskva, Peterburg, Riga, provinsial va boshqalar. Skandinaviyada “Milliy romantizm” deb atalgan me'moriy yo'nalish vujudga keldi. Rossiyada bu yo'nalish “Shimoliy modern” yoki “Finskiy modern” deb ataladi, bu stildagi uylarni Viborg shahrida ham uchratish mumkin.

Shuni aytish kerakki, ba'zi me'morlar va me'morchilik tarixchilari yuqorida aytib o'tilgan oqimlarni modernning turli ko'rinishi deb hisoblasalar, boshqalar – mustaqil oqimlar deyishadi.

Modern uslubining paydo bo'lishi imperializm davriga to'g'ri keladi, u paytda faqat minoralar, cherkovlar, qasrlar qurishga ehtiyoj paydo bo'lmasdan, balki zavodlar, vokzallar, aerodromlar, ko'rgazma zallari, magistrallar qurishga ham ehtiyoj sezilgan. Shuning uchun yangi materiallardan foydalanishga ehtiyoj paydo bo'ldi: ya'ni temir (po'lat), beton, shisha. Ular tosh, g'isht va yog'ochni to'ldirib turadi.

XIX asr oxiri –XX asr boshidagi me'morchilik davri turlicha baholandi. Ayrimlar uni me'morchilik tarixidan butunlay o'chirib tashlashadi, ba'zilar pasayish davri deb hisoblashadi, uchinchi birlari esa keyingi me'morchilikni rivojlantirishdagi tayyorlov davri deb hisoblashadi. Ammo shunga qaramasdan modern oqimi dunyoda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Po'lat karkasni qo'llash g'oyasi birinchi bo'lib Chikagoda paydo bo'ldi (Chikago maktabi, Luis Salliven, Frank Lloyd Rayt, Mis Van der Roe). Yaqqol misol – Buffalodagi Garanti Trast Blding. Imorat yuqoriga qarab intiladi, vertikal bo'linish aniq ifodalangan. Derazalar oraliqlari xonani to'la yoritib turishi uchun kengroq qilinadi. Bundan tashqari Salliven ishlarida “Organik me'morchilik” prinsipi vujudga keladi, ya'ni qurilish atrof (peyzaj) manzaraga bog'liqlikda, binoning tashqi ko'rinishi esa ichki tuzilishdan kelib chiqadi.

Modern me'morchiligida bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan mavjud shakldan uzoqlashib yangi shakllar paydo bo'la boshlaydi, masalan, “do'kon derazalari” keng, katta vitrinalar bilan almashadi. Bu davrga kelib turar-joylarning turi shakllanadi. Ko'p qavatli imoratlar qurilishi avj oladi. Shunday holatlar ham bo'ldiki, omadli loyixalar bilan birga asl (haqiqiy) yugendstil uslubida moda ortidan quvadigan, foyda olish maqsadida qurilgan imoratlar paydo bo'ldi. Boshqa

me'morlar, aksincha, oldingi merosga ko'p suyanmasdan, erkin ijod qildilar, yangi yechimlarni izlab, ixtirochilar yo'liga o'tdilar.

Kichik arxitektura shaklli va dekorativ qurilmalari

Landshaft arxitekturasi obyektlaridagi kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar - bular badiiy bezatish elementlari bo'lib, turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin. Ular umumiy stil bilan birlashtirilgan, bezatadigan, xilma-xillik yaratadigan, obyektlarni funksional vazifalariga, ramzlarining jilodorligini beradigan va yana, tashrif qilganlarni park maydonchalarining u yoki bu zonalariga yo'naltirish axborotini berishi mumkin. Me'moriy elementlar va inshootlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- dekorativ me'moriy elementlar - favvoralar, haykallar, vazalar, pergolalar va trelyajlar;
- g'oyaviy-siyosiy mazmundagi me'moriy elementlar - monumental yodgorliklar, byustlar;
- madaniy-maishiy va utilitar mazmundagi elementlar - ko'rgazma pavilyonlari, yozgi teatrlar va kinozallar ochiq estradalar, qiroatxonalar, bufetlar, umalar, yozuvli jadvallar, skameykalar;
- tinch dam olish uchun — ayvonchalar, tomosha maydonchalari, pavilyonlar;
- faol dam olish uchun — bolalar maydonchalari, badan tarbiya maydonchalari, raqs maydonlari, attraksionlar.

sport gazoni muayyan maqsadga mo'ljallanadi (sport musobaqalari, qiyaliklarni mustahkamlash uchun). Bunday turgatepkilash, ezilishga, gorizonta siljishlar va boshqa ta'sirlarga chidamli mustahkam o't tanlanadi. Ular doimiy parvarish talab

qiladi, chunki doimiy kesish va sug'orish ildizining mustahkamlanib, quyuq o'sishiga yordam beradi.

O'simliklar mavzusini yakunlashdan oldin quyidagilarga urg'u berib o'tish joyiz:

1. Loyihalashga o'tishdan oldin, boshlovchi yog'och navlari ajratilib olinadi, ularni o'z navbatida balandligi bo'yicha, teksturasi bo'yicha, ekologik talablari bo'yicha ajratilib olinadi.
2. Har bir tanlangan asosiy daraxt navlari guruhiga bog'liq bo'lgan daraxtlar, butalar, gulli yoki o'tli o'simliklarni shox-shabballari, barglari rangi, teksturasi va o'sish shart-sharoitlariga ajratilib tanlanadi.

Suv va suvli kompozitsiyalar. Suv bu eng boy va xilma-xilligi bo'yicha samarador bog' va park kompozitsiyalarini taklif etadigan tabiiy material. Suvning maftunkorligini o'ziga xos dekorativ xususiyatlari bilan insoniyatga katta emotsional ta'sir ko'rsata olishi bilan tushuntirib berish mumkin. Har qanday suv qurilmasini turli xil ranglarga ega bo'lgan tasvir palitrasi bilan solishtirib ko'rish mumkin. Bu xislatlar suvning tabiiy xususiyatlari, oquvchanligi va rangsizligi, har qanday shaklga kira olishi va rangini o'zgartira olishi bilan, atrofidagi jismlarning tasvirini aks ettira olishi hamda ovoz chiqarishi bilan bog'langan. Suvni landshaftning badiiy kompozitsiyasida element sifatida qo'llashda, uning barcha tabiiy xususiyatlarini to'laligicha va eng yuqori estetik did bilan namoyon etishga harakat qilish lozim.

Suvning sovuqlik, oquvchanlik, o'zgaruvchanlik, aks qaytarish qobiliyati, sochilishi va ovoz chiqarishi tabiiy xususiyatlaridan, turli xildagi landshaft elementlarini barpo etish imkoniyatini beradi.

Bog' va parklarning landshaftini tashkillashtirishda suvning — buloq, jilg'a, kaskad, basseyn, fontan, sharshara, daryo, ko'l va hovuz shakllari ishlatiladi.

Bu asnoda suv holatining 2 shakli hisobga olinadi — dinamik (harakatlanuvchan) va statik (tinch)

Shu sababli landshaftning tuzilishi buloq, jilg'a, sharshara, kaskad, fontan , bular qatorida daryo va dengiz tarkibida qo'llaniladi.

Insonga emotsional ta'sir etish darajasi suvning hajmi va qudrati, balandligi va tushish tezligiga, oqimning tasviriga va suv inshootlaridagi suvning jildirab oqishiga bog'liq. Agar loyihalananayotgan hududda kerakli hajmdagi va qudratdagi suv havzasi mavjud bo'lsa, u holatda asosiy masala uni dekorativ xususiyatlarini kuchaytirish va kamchiliklarini berkitish bo'ladi.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat bo'zilatganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

O'zbekiston o'z istiqlol yo'lida izchil qadam bosar ekan o'z ona tabiatini asrab-avaylash yuzasidan bir qator dunyoning yirik mamlakatlari bilan har tomonlama aloqalarni o'rnatmoqda. Lekin shuni ham aytish kerakki ayni vaqtda dunyo ekologik jarayoni tubdan o'zgarib bormoqda. Biz yashab turgan hozirgi dunyoning atmosferasini toza ekologik talablarga javob beradi deya olamiz-mi?-yoq albatta deyishimiz mumkin. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolardan biri. Bu muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib sivilizatsiyaning bugungi kuni va kelajagi ko'p jihatidan shu muammoni hal etishga bog'liq".

Atrof- muhit ekologiyasi hususida bosh qomusimizda ham ta'kidlab o'tilgan. "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi va boshqa

tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir"

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-modda)

XX asrga kelib O'zbekiston ekologik muammolarni oldini olish va yaxshilash bo'yicha quyidagi taklif va strategik yo'nalishlarni ishlab chiqdi.

"O'zbekiston Respublikasi 1999-2005 yillarga mo'ljallangan atrof-muhitni muhofaza qilish harakat davlat dasturi", O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi", "O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigenasi bo'yicha milliy harakat dasturi", "Biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakat rejasi" kabi hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu hujjatlarda davlat tizimining jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat shakli, hozirgi kunda va kelajakda qanday bo'lishi O'zbekistonning ekologik konsensiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyasining nomukammalligi, tabiatga nisbatan iste'molchilik an'analari - bularning barchasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqasidagi ziddiyatlar keskinlashuvining bosh sababidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarining Xavfsizlikka taxdid bulimida Ekologik muammolar to'g'risida aloxida to'xtalib utgan¹. I.Karimov ekologik muammolarning tobora chuqurlashib, keskin ijtimoiy muammoga aylanayotganligi haqida suz yuritar ekan, ekologik muammolarga karshi ta'sirchan chora-tadbirlarni ruyobga chiqarish, ekologik tanglik taxdidini barham toptirish respublika aholisi uchun, jismonan sog'lom yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda ekologik jixatdan musaffo hayotiy muxit yaratish imkonini beradi, deb bayon qiladi. Jumladan, "Ekologik xavfsizlik muammosi allakachonlar milliy va mintakaviy doiradan chiqib, butun

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafko'rasi - xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O'zbekiston, 2000.110-134 bb.

insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni xalq etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizasiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning xalq qilinishiga bog'liqdir" deb alohida ta'kidlaydi.

Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham ega bo'lgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e'tirof etgan. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi.

Shuning uchun ham respublikamizda ekologiya xavfsizligi, atrof-muhit tozaligi, umuman olganda ekologik muammolarni oldini olishga qaratilgan bir qancha qonunlar joriy etildi.

Bular quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ekologik ekspertiza to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Chiqindilar to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ekologik nazorat to'g'risida"
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ekologik ekspertiza to'g'risida"

Yuqorida ko'rib o'tkanimizdek ekologiya, atrof-muhit tozaligi bu butun jahon muammosidir. Shunday ekan, har bir inson o'z faoliyati davomida buni yodda tutishi va befarq bo'lmasligi lozim.

Inson bilan tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasida hozirgi davrda kelib chiqishi ekalogik muammolar jiddiy va keng ko'lamlidir. Ekalogik muammolarning hal etilishida barcha yoshdagi va mutaxassisliklardagi insonni ekalogik ta'lim va tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega. Afsuski, yoshlar o'rtasida bugungi kunda ekalogik ongni yetarli darajada deb bo'lmaydi. Buning sabablaridan biri ularga samarali ekalogik ta'lim va tarbiya tizimining yo'lga solinmaganligidir.

Mustaqillik yillarida respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini boshqarib turadigan qariyb 30 ta qonun va 350 dan ortiq me'yoriy huquqiy hujjat qabul qilindi.

Mintaqaviy ekalogik muammolar . Er yuzasining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy-iqlim, ijtimoiy-ekalogik, etnografik hususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari xarakterini belgilab beradi. Mintaqaviy ekalogik muammolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, belgilangan miqdordan oshib ketishi, o'rmonlarda daraxtlarni kesish va boshqalar hisoblanadi.

O'zbekistondagi ekalogik muammolar. Bugungi kunda Mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqa bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq-ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Holbuki, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi respublikada ijtimoiy ekotizimlarning holatiga muayyan darajada sal'biy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada keskin bo'lib turgan ekalogik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy sanoat majmualari joylashgan mintaqalarda (Angren-Olmaliq –Chirchiq, Farg'ona-Marg'ilon, Navoiy va hakazo) tabiatni muhofaza qilish muammolari.

2. Orol va Orolbo'yi muammolari, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish.

3. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

4. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari, pestitsidlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi.

5. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

O'zbekistonning ekologik siyosati. Er kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqurlashuvida ozmi-ko'pmi O'zbekiston Respublikasining ishtiroki bor. Istiqomat qilayotgan 29 mln.dan ziyod aholining yarmidan ko'prog'i ekologik xavfsiz bo'lmagan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro'y bergan ekologik inqiroz holati Sovet davrining noekologik agrar va iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezident I.A.Karimov, ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi — kishilarning hayotiy zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muhitini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qshish va tabiiy resurslardan samarali foydalanshi, ya'ni tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy -ekologik munosabat shaklini qo'llash O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi.

Ushbu diplom loyihasi Toshkent shahriga taklif sifatida berilmoqda.

Toshkent shahri. Markaziy Osiyoning eng yirik qadimiy shaharlaridan biri - O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismida,

Tyanshan tog‘lari etaklarida, 440–480 m teppalikda, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan. Aholisi 2,340,900 kishini tashkil etadi (2013). Shahar Qozog‘istonning chegarasiga yaqin joylashgan. Maydoni 327,9 km².

Iqlimi. Iqlimi kontinental, jazirama, quruq yoz kunlari hamda sovuq qish iqlimi bilan Shahar boshqa dunyo shaharlaridan ajralib turadi. Yillik o‘rtacha harorat 13,5 °C. Yozda esa harorat 35 °C gacha yetish bilan birga, qish oylarida buning aksini kuzatish mumkin. Havo harorati –25,-30 C° gacha boradi. Asosiy yog‘inlar noyabr hamda mart oylarida kuzatiladi.

Toshkent iqlimi kontinental, yillik o‘rtacha temperaturada 13,3°, yanvarning o‘rtacha temperaturasi —1,1°, eng past t-ra —29°. Iyulning o‘rtacha trasi 27,5°, eng yuqori t-ra 42°. Yiliga 360– 390 mm yog‘in yog‘adi. Chirchiq daryosidan chiqarilgan va butun shahar bo‘ylab o‘tadigan Bo‘zsuv, Salor, Anhor, Qorasuv, Oqqo‘rg‘on, Bo‘rijar, Oktepa, Qoraqamish va boshqa kanallar uning mikroiklimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatad

2014-yilining boshiga kelib Toshkentning doimiy aholisi soni 2352,9 ming kishiga yetdi. Aholi soni bo‘yicha Toshkent shahri MDH davlatlari orasida to‘rtinchi o‘rinda turadi (Moskva, Kiyev va Sankt-Peterburg shaharlaridan keyin).

Mirzo Ulug‘bek tumani (1935 yilgacha — Proletar tumani, 1992 yilgacha Kuybishev tumani; 1992 yil maydan Mirzo Uluyebek tumani) — Toshkentdagi ma’muriy-hududiy birlik. 1929 i. tashkil qilingan. Hozirgi chegarasi 1978 yil dan buyen o‘zgarmagan. Toshkentning shim.sharqiy qismida joylashgan. Toshkent markazi (Amir Temur xiyoboni)dan boshlanib, shim.sharqiy tomonga, Toshkent avtomobil halqa yo‘ligacha boradi. Feruza mavzesi, Toshkent traktor zdi, Ulug‘bek shaharchasi g‘am tuman hududiga kiradi. Maydoni 3,2 ming km², shu jumladan, ko‘kalamzorlashtirilgan hudud — 0,579 ming ga. Aholisi 247,6 ming kishi (2004). Tuman hududida tarixiy va madaniy yodgorliklardan Kirxa (1892) saklangan. Ko‘chalar soni 532 ta. Asosiy magistrallari: Pushkin, Parkent, Temur Malik, Oqqo‘rg‘on ko‘chalari, Buyuk ipak yo‘li shohko‘chasi, Habib Abdullayev

ko'chasi, Kichik halqa yo'l. 49 ta mahalla mavjud. Tuman hududida 377 yirik korxonalar, shundan 28 sanoat korxonasi (shu jumladan, „Toshkentkabel“, traktor zdlari, „O'zbekiston paxtachilik mashinasozligi“, lokbo'yoq zdlari.), 3119 kichik va o'rta biznes sub'yektlari bor. 27 i.t. instituta, 10 loyiha instituti, 4 oliy o'quv yurti (Madaniyat instituti, Jahon iktisodiyoti va diplomatiya unti va boshqalar) xamda umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, yozuvchilar, kompozitorlar, me'morlar ijodiy uyushmalari va teatr jamiyati, 33 umumiy ta'lim maktabi, 12 kasbxunar kolleji, 4 bolalar musiqa maktabi va san'at maktabi, 10 kasalxona va dispanser, „Ona va bola“ markazi, 11 oilaviy poliklinika, 2 tibbiysanitariya qismi ishlab turibdi.

Mening diplom loyiham Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumaniga taklif sifatida berilgan. Biz taklif sifatida berayotgan loyiha ya'ni “Mirzo Ulug'bek tuman 1-stomatologik poliklinikasining arxitektura muhiti dizayni ” atrof- muhitga zarar keltirmaydi. Atrofda kislorot miqdorini ko'paytirish shu bilan birga insonlarga estetik zavq berish, sayyohlarni jalb qilish uchun atrofda yashil hududlar tashkil etilgan, turli xildagi daraxtlar o'tqazilgan . Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Toshkent shahridagi ushbu stomatologiya atrofi relyefga boy bolganligi sababli yashil maydonlar va daraxtlar ko'paytirilgan. Bu hududdagi landshaftga , daraxtlarni ko'paytirish albatta maqsadga muvofiqdir. Bino to'g'risida aytib otadigan bo'lsak, binoda faoliyat yuritadigan hodimlar uchun barcha qulayliklar yaratilgan, ya'ni hodimlar uchun maxsus xonalar, sanitariya xonalari tashkil etilgan. Binodan chiqadigan chiqindilar uchun maxsus og'zi yopiq idishlar joriy qilingan, chiqindi oqava suvlari esa kanalizatsiya orqali markaziy kanalizatsiyaga yuboriladi. Binoning qurilishida ham tabiiy materiallardan foydalanilgan. Masalan , g'isht, oyna kabi materiallardan. Umumiy holda , aytadigan bo'lsak ushbu diplom loyihada tabiatga , atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka harakat qilindi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari inson ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat bo'zilyotganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlilik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Diplom ishimda stomatologiya poliklinikasining dizayn yechimi ko`rib chiqilgan. Asosiy zonalarning xajmiy-rejaviy va badiiy yechimlari, ularning arxitekturasini rivojlantirish tendentsiyalari, tabiiy hamda sun`iy yoritish masalalari, qurilishdagi zamonaviy me`yor va qoidalar, obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish me`yorlari va hokazolar qamrab olingan. Landshaft arxitekturasining bugungi holatiga holisona baho berish, uning kelajakdagi taraqqiyotini to`g`ri belgilash uchun bu sohada qo`lga kiritilgan yutuqlar va yo`l qo`yilgan kamchiliklar tahlil qilinishi, umumlashtirilishi va tegishli xulosalar chiqarilishi kerak. Mustaqillik yillariga hali ko`p vaqt bo`lmasada, bu davrda bajarilgan bunyodkorlik ishlari, me`morchilik san`atining ilg`or yo`nalishlari va kamchiliklar aniqlanishi, tahlil qilinmog`i va xolisona baholanmog`i zarur.

Landshaft arxitekturasi va dizayni keyingi yillarda keng urf bo`lmoqda. Hozirda bizning diyorumizda qurilayotgan yangidan-yangi binolar atrofi, yangi bog`lar(qishki bog`, yopiq bog`), park va xiyobonlar landschaft arxitektori yoki dizaynerlarsiz go`zal va tartibli ko`rinishga ega bo`lmaydi. Yoshlarni go`zallikka oshno kishining oddiy va sinalgan yo`li ularning muhitini go`zal qilish, atrofidagi buyum, jihozlar, devorlar, muhitini ham chiroyli va mazmunli bo`lishini ta`minlash va tanlash eng muhim masala.

Tashqi va ichki muhitda foydalaniladigan fovvoralar, dekorativ havzalar, skameykalar, axlat qutilari, gultuvaklar, kechki yoritish chiroqlari, reklama qurilmalari, stendlar kabi mo`jaz arxitektura formalari hamda formovka qilingan tabiiy o`simliklar, yashil devorlar, bordyurlar, klumbalar, rabatkalar, miksborderlar, Bino va imoratlarni tabiat bilan uyg`unlashtiruvchi vositalar kishilarga huzur baxsh etadi.

Tashqi muhitni, shahar va binolar atrofi muhitini, ularning ichki muhitlariga kompozitsion jihatdan bir butunlik kashf etuvchi Landshaft arxitekturasi va Landshaft dizaynining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson ekologiyasi birgina biologik qonunlarga bo'ysunmaydi va bu qonunlarning ijtimoiy qonunlar bilan o'zaro aloqasiz uni tushunib bo'lmaydi. Bu ko'pgina sabablar bilan izohlanadi.

Birinchi sababi shundan iboratki, deb ta'kidlaydi P. N. Fedoseev,- hozirgi zamon fan-texnika inqilobi, jumladan shunga olib keladiki, insonning o'zi inson ekologiyasida turli va har doim ham oldindan bilib bo'lmaydigan o'zgarishlarni qiladi, o'z navbatida unga shu o'zgarishlardan ahamiyati kam bo'lmagan aks ta'sir ko'rsatadi. Natijada insonning bunday o'zgarishlarga moslashuvining o'tkir va ko'p jihatdan hal etilmagan muammolari paydo bo'ladi.

Inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar biologik, shuningdek, ekologik negizlar asosiga emas, balki ularni o'zgartiruvchi ijtimoiy-mehnat faoliyati negizlariga quriladi. Insonning tabiatga munosabati va tabiatning insonga munosabati ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari va inson ishtirok etadigan anq? mehnat jarayonlari orqali ro'yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Meyoriy hujjatlar:

1. SHNK 2-08. 02-09. “Jamoat binolari va inshootlari”
2. KMK 2-03. 10-95. “Tomlar va tomqoplamalar”
3. KMK 2.01.03-96. “Zilzilaviy hududlarda qurilish”
4. KMK 2. 07. 01-94 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy , geologik ma’lumotlar”

Prezident asarlari:

1. 2017-2021 yillarda Xarakatlar satrategiyasi dasturi
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.” T., “O’zbekiston”, 2008 y.
3. Karimov I.A . “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish - yorug’ kelajagimizning asosiy omili” T., “O’zbekiston”, 2013 y.
4. Karimov I.A. “Yuqori o’sish suratlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi.” T., “O’zbekiston”, 2014 y.
5. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.” T., “O’zbekiston”, 2015 y.

Asosiy adabiyotlar:

1. “Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari” Toshkent., 2009. X.M.Ubadullayev, Inag’omova M.M
2. A. S. O’rolov. O’rta Osiyo an’anaviy uslubi va zamonaviy bog’ – park san’ati – Samarqand : “Zarafshon”, 2011.

Internet saytlari:

www.meros.uz

www.wikipedia.uz

www.news.uzreport.uz

Ilova

















